



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 12-noyabr

161-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28, 126-moddalariga, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21¹-moddalariga asosan, Farg‘ona viloyati hokimining 2020-yil 17-oktabrdagi 267-sonli qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 5-noyabrdagi 605-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 5-noyabrdagi 605-11-0-F/25-sonli farmoyishiga asosan tumanning har tomonlama ehtiyojmand bo‘lgan oilalarga yordam berish maqsadida yetkazib berilgan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash xarajatlari uchun viloyat mahalliy budgetining 2025-yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan 128 759,0 (bir yuz yigirma sakkiz mln.yetti yuz ellik to‘qqiz) ming so‘m miqdorida mablag‘ Farg‘ona tumaniga ajratilganligi inobatga olinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuzilgan tuman hokimligining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (A.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga, ajratilgan mablag‘ni manzilli, maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T